



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




No8(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
12-avgust, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Abdullayeva N. Sh.** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**Doniyorov S. M.** – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education .....                                     | 10  |
| <i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>                                                                                                                                                     |     |
| Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari .....                                                                                                                         | 16  |
| <i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>                                                                                                                                                    |     |
| Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari .....                                                                | 20  |
| <i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>                                                                                                                                               |     |
| O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin? .....                                                                                                               | 26  |
| <i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>                                                                                                                                                    |     |
| Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida .....                                                                              | 33  |
| <i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>                                                                                                                                          |     |
| Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari .....                                                                         | 40  |
| <i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>                                                                                                                                                      |     |
| Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi .....                                        | 46  |
| <i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>                                                                                                                                               |     |
| Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....                                                        | 50  |
| <i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>                                                                                                                                               |     |
| Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar .....                                                                                                                           | 55  |
| <i>Sobir Azizov</i>                                                                                                                                                                    |     |
| Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli .....                                    | 57  |
| <i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>                                                                                                                |     |
| Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar .....                                                                 | 62  |
| <i>E. E. Jumayev</i>                                                                                                                                                                   |     |
| Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi .....                                 | 65  |
| <i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>                                                                                                                                                    |     |
| Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida .....                                                       | 71  |
| <i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>                                                                                                                                               |     |
| TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi .....                                                                         | 75  |
| <i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>                                                                                                                                                     |     |
| Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ..... | 82  |
| <i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>                                                                                                                                               |     |
| Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish .....                                                                        | 88  |
| <i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>                                                                                                                                                  |     |
| Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari .....                                                                    | 95  |
| <i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>                                                                                                                                                       |     |
| Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash .....                     | 100 |
| <i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>                                                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari .....                | 106 |
| <b>Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich</b>                                                                                                         |     |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....     | 110 |
| <b>Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li</b>                                                                                                             |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...                                    | 114 |
| <b>To'xtayeva Dilrabo Nematovna</b>                                                                                                                 |     |
| Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari .....                                                                                                       | 119 |
| <b>Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna</b>                                                                                                              |     |
| The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice .....                                                                                        | 123 |
| <b>Turayev Alimjan</b>                                                                                                                              |     |
| Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review) .....                                                                                      | 128 |
| <b>Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.</b>                                                                                               |     |
| O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar ..... | 136 |
| <b>Mamatkulova Maxfuza Kozimovna</b>                                                                                                                |     |



## BO'LAJAK TARBIYACHILARNING LIDERLIK-BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

To'xtayeva Dilrabo Nematovna

Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 11-DMTT tashkiloti direktori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Unda zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan talablar, liderlik-boshqaruv kompetentligining mazmun-mohiyati hamda uning tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Bo'lajak tarbiyachilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyat, kommunikativlik, tashkilotchilik va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar asosida liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari belgilangan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak tarbiyachi, liderlik, boshqaruv, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, pedagogik shart-sharoitlar, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, kommunikativlik, mustaqillik, mas'uliyat.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical conditions for developing the leadership and management competence of future educators. It analyzes the requirements for the professional activities of educators in the modern preschool education system, the content and essence of leadership and management competence, and its structural components. The pedagogical opportunities for developing initiative, independence, responsibility, communication, organizational skills, and decision-making skills among future educators are revealed. The article also identifies effective pedagogical conditions for developing leadership and management competence based on competency-based, person-centered, activity-oriented, and systemic approaches.

**Key words:** future educator, leadership, management, competence, professional competence, pedagogical conditions, initiative, organizational skills, communication, independence, responsibility.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические условия развития лидерских и управленческих компетенций будущих педагогов. Анализируются требования к профессиональной деятельности педагога в современной системе дошкольного образования, содержание и сущность лидерских и управленческих компетенций и их структурные компоненты. Выявлены педагогические возможности развития инициативности, самостоятельности, ответственности, коммуникативных и организационных навыков, а также умения принимать решения у будущих педагогов. Также определены эффективные педагогические условия развития лидерских и управленческих компетенций на основе компетентностного, личностно ориентированного, деятельностно ориентированного и системного подходов.

**Ключевые слова:** будущий педагог, лидерство, управление, компетенция, профессиональная компетентность, педагогические условия, инициативность, организаторские способности, коммуникация, самостоятельность, ответственность.

### KIRISH

Ta'lim, xususan, kasbiy-pedagogik ta'lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak tarbiyachilarning nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, balki ularning shaxsiy sifatлари, tashabbuskorligi, mustaqilligi, mas'uliyatligi hamda liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi pedagogik jarayonning asosiy subyekti sifatida bolalar faoliyatini tashkil etadi, guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiradi, tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi, ota-onalar va hamkasblar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Shu sababli zamonaviy tarbiyachidan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda, liderlik va boshqaruv qobiliyatlariga ega bo'lish ham talab etiladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak tarbiyachilarda liderlik va kasbiy tayyorgarligida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga I. L. Zimnyaya katta hissa qo'shgan. Olim pedagog shaxsining sifatlarini obyektiv va subyektiv jihatlariga ajratadi. Obyektiv jihatlariga kasbiy bilim, fan metodologiyasini egallash, pedagogik va psixologik bilimlardan foydalanish kirs, subyektiv jihatlar pedagogik mahorat, iste'dod, ijodkorlik va kasbiy tashabbuskorlikni qamrab oladi. Mazkur yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega [8, 56-b.].

N. I. Almazova pedagogning kasbiy kompetentligini pedagogik faoliyat va muloqotning yuqori darajada amalga oshirilishi, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishish bilan bog'laydi. Bu fikr bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligida tashkilotchilik, kommunikativlik, mas'uliyat va samarali pedagogik hamkorlik kabi sifatning muhimligini ko'rsatadi [2, 47-b.].

T. E. Isaeva pedagogning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini moslashuvchan, ijtimoiy, ijtimoiy-tashkiliy, kasbiy va kommunikativ kompetensiyalar sifatida guruhlaydi. Ushbu tasnif bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda, ayniqsa, ijtimoiy-tashkiliy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslaydi [3, 72-b.].

Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonida talabalarning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish, muammoli va pedagogik vaziyatli topshiriqlardan foydalanish, individual hamda jamoaviy faoliyatni uyg'unlashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiyaning rivojlantirish muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarni ijodiy faoliyat, o'z-o'zini boshqarish, jamoaviy loyihalar va turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga faol jalb etish orqali ularda tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyat, muloqotga kirishuvchanlik, tashkilotchilik va boshqaruvchanlik sifatlarini rivojlantirish mumkin.

V. I. Andreyevning fikrlariga ko'ra, zamonaviy pedagog oldida ta'lim sifatini oshirish, yuqori ta'lim standartlarini ta'minlash, ijodiy va tadqiqotchilik vazifalarini mustaqil hal qilish, tarbiya jarayonining murakkablashib borayotgan muammolariga yechim topish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni muntazam o'zlashtirish va turli fanlar bilan bog'liq bilimlarni integratsiyalash kabi murakkab vazifalar turadi. Bunday vazifalarni samarali amalga oshirish uchun pedagog yuqori kasbiy kompetentlikka, ijodiy tafakkurga, ma'naviy-axloqiy salohiyatga, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur [1, 314-b.].

Mazkur talablar maktabgacha ta'lim sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tarbiyachi kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida nafaqat ta'lim-tarbiya beruvchi, balki ularning faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy bo'lajak tarbiyachiga qo'yiladigan asosiy talablar qatoriga kasbiy kompetentlik, intellektuallik, raqobatbardoshlik, ma'naviy yetuklik, kommunikativlik, tashabbuskorlik va liderlik-boshqaruv kompetentligini kiritish mumkin. Liderlik-boshqaruv kompetentligi tushunchasi.

Liderlik-boshqaruv kompetentligi bo'lajak tarbiyachining pedagogik jarayonni maqsadli tashkil eta olishi, tarbiyalanuvchilar faoliyatini yo'naltirishi va muvofiqlashtirishi, guruhdagi munosabatlarni samarali boshqarishi, mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsatishi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi bilan bog'liq shaxsiy hamda kasbiy sifatning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak tarbiyachining mustaqilligi ham liderlik-boshqaruv kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqillik tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy mas'uliyat, ongli tanlov qilish va o'z faoliyatini nazorat qilish kabi sifatlarda namoyon bo'ladi.

Mustaqil qaror qabul qila oladigan tarbiyachi pedagogik vaziyatni tahlil qilib, mavjud sharoitdan kelib chiqib maqsadga muvofiq yechim topa oladi. Mas'uliyat esa bo'lajak tarbiyachining qabul qilgan qarorlari, xatti-harakatlari va faoliyat natijalariga munosabatini ifodalaydi. Tarbiyachining o'z faoliyati uchun javobgarlikni his qilishi uning ishonchli, halol va kasbiy-axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli mustaqillik va mas'uliyatning yuqori darajada rivojlanishi bo'lajak tarbiyachining liderlik pozitsiyasini barqarorlashtiruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasida maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab qiladi. Bunda ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, amaliy faoliyat, shaxslararo munosabatlar va talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish o'zaro uyg'un holda tashkil etilishi zarur.

### Yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Bugungi kunda ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi bo'lajak mutaxassislardan axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va undan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish

nish ko'nikmalarini talab qilmoqda. Yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish orqali bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik jarayonni rejalashtirish, axborot almashish, guruh faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoaviy qarorlar qabul qilish va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bunda an'anaviy pedagogik vositalar bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining oqilona uyg'unligini ta'minlash muhimdir.

### **Kasbiy kompetentlikning integratsiyalashgan rivojlanishini ta'minlash**

Zamonaviy tarbiyachining kasbiy faoliyati faqat pedagogik bilimlar bilan chegaralanmaydi. U psixologiya, falsafa, huquq, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va boshqa fanlar bilan bog'liq bilimlardan ham foydalanadi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarur. Bunday yondashuv bo'lajak tarbiyachiga murakkab pedagogik vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va eng maqbul qarorni tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bo'lajak mutaxassislarni uzluksiz kasbiy rivojlanishga yo'naltirish, mahalliy va xorijiy ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish ham liderlik-boshqaruv kompetentligining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Emotsional-irodaviy sifatlarni rivojlantirish**

Bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligida emotsional-irodaviy sifatlari ham muhim o'rin egallaydi. Xususan, empatiya, optimizm, emotsional barqarorlik, sabr-toqat, o'zini boshqara olish va pedagogik vaziyatlarda ijobiy munosabatni saqlab qolish qobiliyati samarali liderlikning muhim shartlaridan hisoblanadi. Empatiya tarbiyachiga tarbiyalanuvchilarning his-tuyg'ularini tushunish, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ular bilan ijobiy munosabat o'rnatish imkonini beradi. Optimistik yondashuv esa tarbiyachining murakkab pedagogik vaziyatlarda ham ijobiy kayfiyatni saqlab qolishi, tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlashi va ularning imkoniyatlariga ishonch bildirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, har bir bolaga optimistik nuqtayi nazardan yondashish bo'lajak tarbiyachining pedagogik liderligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotning metodologik asosini bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonini shaxsiy, kasbiy va faoliyatga yo'naltirilgan jihatlar asosida o'rganishga imkon beruvchi kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, tizimli va aksiologik yondashuvlar tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligini alohida bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan integrativ shaxsiy-kasbiy sifat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir bo'lajak tarbiyachining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va liderlik salohiyatini hisobga olishga asoslanadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv doirasida liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bevosita amaliy faoliyat, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, jamoaviy topshiriqlar, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonlari bilan bog'lanadi.

Tizimli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligi o'zaro bog'liq bo'lgan motivatsion, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy-boshqaruv va refleksiv komponentlar birligi sifatida qaraladi. Aksiologik yondashuv esa bo'lajak tarbiyachida insonparvarlik, mas'uliyat, hamkorlik, pedagogik etika va tarbiyalanuvchi shaxsini qadrlash kabi kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik kuza-tish, suhbat, so'rovnomalar, o'z-o'zini baholash, pedagogik diagnostika hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur metodlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning liderlik va boshqaruvga oid bilimlari, tashabbuskorligi, mas'uliyatligi, kommunikativ qobiliyatlari, tashkilotchilik ko'nikmalari, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash darajasi aniqlanadi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida uning asosiy tarkibiy komponentlari tahlil qilindi. Tadqiqotda liderlik-boshqaruv kompetentligining rivojlanganlik darajasi motivatsion, kognitiv, tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ va refleksiv komponentlar asosida baholandi. Mazkur komponentlar bo'lajak tarbiyachining pedagogik faoliyatga munosabati, liderlikka bo'lgan ehtiyoji, boshqaruvga oid bilimlari, jamoani tashkil etish qobiliyati, samarali muloqot o'rnatishi va o'z faoliyatini tahlil qila olish imkoniyatlarini ifodalaydi.





1-jadval: Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligining asosiy komponentlari

| No | Komponentlar               | Asosiy ko'rsatkichlar                                                      | Aniqlash mezonlari                                                              |
|----|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | <b>Motivatsion</b>         | Liderlikka qiziqish, tashabbuskorlik, kasbiy motivatsiya                   | Kasbiy faoliyatda faol ishtirok etish, yangi g'oyalarni ilgari surish           |
| 2  | <b>Kognitiv</b>            | Liderlik va boshqaruvga oid bilimlar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish | Boshqaruv qarorlarini tushunish va pedagogik vaziyatga mos yechim topish        |
| 3  | <b>Tashkiliy-boshqaruv</b> | Tashkilotchilik, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyat                   | Guruh faoliyatini rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash va nazorat qilish      |
| 4  | <b>Kommunikativ</b>        | Muloqot, hamkorlik, tinglash, nizolarni hal qilish                         | Tarbiyalanuvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali munosabat o'rnatish |
| 5  | <b>Refleksiv</b>           | O'z faoliyatini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini rivojlantirish | O'zining kuchli va zaif tomonlarini anglash, xatolar ustida ishlash             |

Jadvaldan ko'rinadiki, bo'lajak tarbiyachining liderlik-boshqaruv kompetentligini faqatgina boshqaruvga oid bilimlar bilan cheklab bo'lmaydi. Uning tarkibida motivatsion, kommunikativ, tashkiliy va refleksiv sifatlarning ham o'zaro uyg'unligi talab etiladi. Ayniqsa, tarbiyachining tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilishi uning pedagogik jarayondagi liderlik pozitsiyasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligining rivojlanganlik darajasini yuqori, o'rta va past darajalarga ajratish maqsadga muvofiq. Yuqori daraja pedagogik vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilish, jamoani tashkil etish, samarali muloqot o'rnatish va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish qobiliyatining barqaror namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. O'rta darajada mazkur sifatlarning mavjud bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lishi vaziyatga bog'liq bo'ladi. Past darajada esa tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, tashkilotchilik va kommunikativ faollik yetarlicha shakllanmagan bo'ladi.

2-jadval: Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini baholash mezonlari

| Daraja        | Tavsifi                                                   | Asosiy belgilar                                                                          |
|---------------|-----------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Yuqori</b> | Liderlik-boshqaruv kompetentligi barqaror rivojlangan     | Tashabbuskor, mustaqil, mas'uliyatli, kommunikativ, tashkilotchi, qaror qabul qila oladi |
| <b>O'rta</b>  | Liderlik-boshqaruv kompetentligi qisman shakllangan       | Faollik mavjud, biroq ayrim vaziyatlarda tashqi ko'makka ehtiyoj sezadi                  |
| <b>Past</b>   | Liderlik-boshqaruv kompetentligi yetarlicha shakllanmagan | Tashabbuskorlik sust, qaror qabul qilishda qiynaladi, jamoani boshqarishda passiv        |

O'tkazilgan nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda, amaliy, interaktiv va refleksiv metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Xususan, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlar, loyiha faoliyati, muammoli topshiriqlar, munozara, trening va jamoaviy faoliyat talabalarning liderlik pozitsiyasini namoyon etishga imkon beradi.

3-jadval: Liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar

| No | Pedagogik shart-sharoit                        | Amalga oshirish vositalari                                            | Kutiladigan natija                                                      |
|----|------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| 1  | <b>Refleksiv-motivatsion muhit</b>             | Trening, o'z-o'zini baholash, refleksiv topshiriqlar                  | Liderlikka ichki motivatsiya va o'z imkoniyatlarini anglash rivojlanadi |
| 2  | <b>Amaliy-faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim</b> | Rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlar, loyihalar                       | Tashkilotchilik va boshqaruv ko'nikmalari shakllanadi                   |
| 3  | <b>Kommunikativ-interaktiv muhit</b>           | Munozara, debat, guruhli ish, hamkorlikdagi topshiriqlar              | Muloqot va jamoani boshqarish qobiliyati rivojlanadi                    |
| 4  | <b>Axborot-ta'lim muhiti</b>                   | Raqamli texnologiyalar, elektron platformalar, multimedia             | Zamonaviy boshqaruv va axborot bilan ishlash ko'nikmalari rivojlanadi   |
| 5  | <b>Shaxsga yo'naltirilgan muhit</b>            | Individual topshiriqlar, mentorlik, individual rivojlanish yo'nalishi | Shaxsiy liderlik salohiyati rivojlanadi                                 |
| 6  | <b>Kasbiy-amaliy muhit</b>                     | Pedagogik amaliyot, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik  | Real pedagogik vaziyatlarda liderlik va boshqaruv tajribasi shakllanadi |

Mazkur natijalar asosida aytish mumkinki, bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish birgina metod yoki vosita orqali emas, balki o'zaro bog'liq pedagogik shart-sharoitlarning

yaxlit tizimi asosida amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, refleksiv-motivatsion va amaliy-faoliyatga yo'naltirilgan shart-sharoitlarning kommunikativ hamda axborot-ta'lim muhiti bilan uyg'unlashtirilishi bo'lajak tarbiyachilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyat, tashkilotchilik va samarali boshqaruv ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish zamonaviy oliy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur kompetentlik bo'lajak mutaxassisning pedagogik jarayonni samarali tashkil etishi, tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarishi, jamoa bilan hamkorlik qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsatishi va kasbiy faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasasida yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish, hamkorlikdagi ijodiy faoliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikning fanlararo integratsiyasini ta'minlash hamda emotsional-irodaviy sifatlarni maqsadli rivojlantirish zarur. Mazkur pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro uyg'un holda tashkil etilishi bo'lajak tarbiyachilarda liderlik, tashkilotchilik, boshqaruv, kommunikativlik, mustaqillik, mas'uliyat va tashabbuskorlik sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotida zamonaviy pedagogik talablar asosida faoliyat yurita oladigan, bolalar va jamoani samarali boshqara oladigan, ijodkor, tashabbuskor va kasbiy jihatdan kompetent lider-tarbiyachilarni tayyorlash uchun zarur pedagogik asos yaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев В. И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: Изд-во Казанского университета, 1996. – 567 с.
2. Алмазова Н. И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной компетентности при обучении иностранному языку в неязыковом вузе. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора пед. наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 47 с.
3. Исаева Т. Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика, 2005.
4. Мазурчук Н. И. Генезис взглядов выдающихся деятелей отечественного образования XVIII – начала XX века на профессионально-педагогические качества учителя // Педагогическое образование в России. – 2007. – № 1.
5. N. Muslimov, D. Sayfurov, M. Usmonboeva va A. To'raevlar. Webtexnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T., 2015.
6. Muslimov N. A., Urazova M. B. Bo'lajak o'qituvchilarning professional malakasini shakllantirishning texnik vositasi sifatida veb-sayt vazifasi // Hayot davomida ta'lim: Barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta'lim: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti, 2014. – B. 127–129.
7. Muslimov Sh. N. "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish". – T., 2020. – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
8. Зимняя И. Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.